

**“YAQINLIK” TUSHUNCHASINI IFODALOVCHI UNDALMALAR**

S.M.Ibodullayeva

*ChDPU, “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va
amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi*

Bobimizning avvalgi qismida qarindoshlik tushunchasini ifodalovchi undalmalar haqida fikr yuritgan bo‘lsa, ushbu o‘rinda esa, qarindoshlik tushunchasining mantiqiy davomi, kontekstual jihatdan sinonim bo‘la oladigan yaqinlik tushunchasini ifodalovchi undalmalar haqida fikr yuritamiz. O‘zbek tilining izohli lug‘atida **yaqinlik** 1 Yaqin holatdalik. G‘alabaning yaqinligi. Bozorning yaqinligi. Ish joyining yaqinligi. Otlarning kishnashi, odamlarning hoy-kuylashi manzilning yaqinligini bildirar edi. M. Ismoil, Farg‘ona t. o.

2 Do‘stona munosabat, yaqin munosabatda bo‘lish (q. yaqin 4). Umidning «sen» degani Hafizaga juda yoqdi – bu juda yaqinlik belgisi. Mirmuhsin, Umid. Bu hammasi mening Elmurodga yaqinligim tufayli. Shuhrat, Shinelli yillar.

3 Yaqin ekanlik (q. yaqin 4). U bilan yaqinligingni bilaman.” tarzida ifodalanib, bir ma’nosi do‘stona yaqin bo‘lish, hamkorlik va aloqalarning bor ekanligi bo‘lsa, ikkinchisi qarindoshlik aloqalari ham mavjud. Buni yana-da aniqroq tushunish uchun yaqin so‘zining izohini keltirishmiz o‘rinli bo‘ladi. “Yaqin [a. – haqiqiy bilim, qat’iy ishonch] 1 Oraliq masofa uncha katta bo‘lmagan, uzoq emas. Eng yaqin yo‘l – shu. Shaharga yaqin bir qishloqda yashaymiz. Bir-biriga yaqin uylar. Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar. Maqol. Qirg‘oqqa yaqin yerda to‘rt qoziq ustida kattakon bir qayiq turar edi. A. Qahhor, Xotinlar. To‘nkalar juda ko‘p, ham bir-biriga juda yaqin. Yer esa tosh-metin. Oybek, Tanlangan asarlar.....

4 qo‘shma Do‘stona munosabatda bo‘lgan, qadrdon, mehribon. Yaqin o‘rtoq. Yaqin do‘st. “Qiziq odam ekansiz”, dedingiz. Ammo do‘stingdan, yaqin bir odamingdan to‘satdan shunday gap eshitish menga, albatta, og‘ir. P. Tursun, O‘qituvchi. Nazarida, notanish yigit allakimga, juda-juda yaqin odamga o‘xshatayotgandek. A. Muhiddin, H. Tojiboev, Otash qalbli qiz. Mehmonlarni to‘y



egasining yaqinlari hurmat va sertakalluflik bilan kutib olishardi. O. Husanov, Shinavanda.

“Kecha va kunduz” asarida qarindoshli ma’nosini anglatuvchi soʻzlar bilan ifodalangan undalmalar keng qoʻllanilgan boʻlib, oʻz va koʻchma ma’noda ham erkin qoʻllanilgan.

- *Aylanay, bolam, patiringni yop!*

Undalmalarning uslubiy xoslanishiga koʻra tahlil qilinganda esa rasmiy uslubga xos undalma sifatida taqsir leksemasini qoʻllanilganligini kuzatishimiz mumkin.

- *Qulluq, taqsir, xizimatingizni qilsam boʻldi.*

“Oʻzini [birovga] yaqin olmoq (yoki tutmoq) Kimsa bilan doʻstona munosabat saqlamoq, oʻzini shunday holatda tutmoq. Meni sevadimi? Chindan sevadimi yoki musofirlikning diqqinafasligidan oʻzini menga yaqin tutib yuribdimi? Shuhrat, Shinelli yillar.” tarzida berilgan boʻlib, bu yaqinlik asosan, yoshi kattalarga bobo, buvi, momo, togʻa, amaki, xola, qizim, oʻgʻlim, bolam, kabi qarindoshlik, xoʻjayin, birodar kabi yaqinlikni ifodalovchi leksemalar bilan ifodalanadi.

“*Fitna, qiz oʻlguring qani?*”, *Fitna, puldan uzat!*”

Oʻrganilayotgan “Kecha va kunduz” asarida shunday undalmalar ham borki, semantik jihatdan qarindoshlik yoki yaqinlikka dalolat qilishini umumiy matn mazmunidan anglashimiz mumkin.

Bilasanmi, Maryam, mening ikki qizim, bir oʻgʻlim bor.

Shaxs nomlari (taxallus va laqablar ham) begonalik tushunchasini ifodalovchi undalma sifatida qayd etilishi toʻgʻri emas deb hisoblaymiz. Turli hissiy boʻyoqdorlikka ega bunday undalmalar betaraf undalma sifatida alohida guruhga birlashadi. Maʼlum boʻladiki, undalmalar uslubiy maʼnosining ikki komponenti oʻrtasidagi munosabatlar turlichadir.

Oʻzbek tilshunosligida soʻzlararo leksik-semantik munosabatlar ham anʼanaviy, ham sistemaviy asoslarda ancha keng tadqiq etilgan. Dastlab soʻzlararo maʼnodoshlik, zid maʼnolilik va shakldoshlik¹ munosabatlaridan boshlangan bu



hodisalar qatori bugungi kunda giponimiya, graduonimiya, partonimiya kabi yangi ochilgan ma'noviy munosabatlar bilan boyidi. Bu munosabat turlari goh *leksik*, goh *leksik-semantik*, goh *semantik munosabat* degan atamalar bilan nomlanadi. Bunda ayrim munozarali nuqtalar bor. So'zlararo bu munosabat turlarini atovchi mazkur atamalarning qaysi biri haqiqatga muvofiq? Avvalo *leksik munosabat* atamasiga diqqat qilaylik. Leksik tushunchasi o'zbek tilida so'zning shakliiy tomonini atash nuqtai nazaridan qo'llaniladi va bunda ma'noviy tomon e'tiborga olinmaydi. Masalan, sof ko'makchilar ham, ko'makchi vazifasidagi so'zlar ham, ko'makchi fe'llar ham leksema deyiladi va bunda ularning semantikasidagi farqlar atama nuqtai nazaridan e'tiborga olinmaydi. Demak, *leksik* atamasi so'zlarning shakliiy tomonini ifodalaydi va, ko'rinadiki, *leksik ma'nodoshlik* atamasi faqat denotatning shaklini atab, uning asl mohiyatini nazardan chetda qoldiradi. Chunki bunda bir leksemaning ikkinchi leksema bilan ma'nodoshligi anglashiladi. Aslida leksema shakliga ko'ra emas, balki ma'nosiga ko'ra boshqa leksemaga ma'nodosh bo'ladi. Sinonimiya ma'noga ishora qiluvchi munosabatdir. Agar ma'nodoshlik qatorida turgan leksemalar monosemantik bo'lganda bu atama nisbatan to'g'ri keladi. Chunki leksema bir butun holda boshqa leksemaga ma'nodoshlik munosabatiga kirishadi: *lingvistika – tilshunoslik* kabi. Masalaning nisbiyligi shundaki, nutqiy qo'llanishlarda har qanday leksema monosemantik leksema ham, polisemantik leksema ham ko'p ma'noli so'zga aylanadi. Nutqiy voqelangan so'z har doim ko'p ma'noli. Zero, A.A.Potebnya ta'kidlaganidek, "Nutqiy so'zning voqelangan har bir ma'nosi yangi ma'nodir" Leksema polisemantik bo'lganda, endi u biror yoki bir nechta sememasi bilan boshqa leksemaga ma'nodosh bo'ladi va ma'nodoshlik leksema semantik qiymatini to'liq qamrab ololmaydi. Masalan, *bola* leksemasi *farzand* leksemasiga to'liq sinonim emas. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, leksik sinonimiya atamasi atalmishning mohiyatini to'liq aks ettira olmaydi.

Undalmalar yuzasidan o'rganishlarimiz natijasiga ko'ra jami 52 ta so'z va so'z birikmalari undalma sifatida keltirilgan bo'lib, ular 180 o'rinda o'z ma'nosida, 61 o'rinda esa, o'z ma'nosida qo'llanilmagan bo'lib, begonalikni ifodalovchi undalmalar esa mavjud emasligi aniqlandi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ibodullayeva, S. M. (2024). Kecha va kunduz romanida begonalik tushunchasini ifodalovchi undalmalar. *Mugallim*, 1(4), 75-80.
2. Ibodullayeva, S. (2022). Methodological and semantic description of versions in cholpon's novel "night and day". *Science and Innovation*, 1(8), 983-989.
3. Ibodullayeva, S. (2022). Cho 'lponning "kecha va kunduz" romaniga oid tadqiqotlar tavsifi. *Академические исследования в современной науке*, 1(18), 263-266.
4. Ibodullayeva, S. M. (2022). Kecha va kunduz romanining badiiy xususiyatlari. *Tilshunoslikning dolzarb masalalari*, 1(1), 217-221.
5. Ibodullayeva, S. (2022). Cho 'lponning "kecha va kunduz" romanidagi undalmalarning uslubiy-semantik tavsifi. *Science and innovation*, 1(B8), 983-98
6. Ibodullayeva, S. M. (2024) Issues of modern pedagogical technology in teaching the science of integration to primary class students. *Web of Teachers: Inderscience Research* 2(3). 97-101
7. Inobat Bahodirovna Madrakhimova METHODIST CHARACTERISTICS OF THE AUTUMN IMAGE (IN THE EXAMPLE OF RAUF PARFI'S CREATION) [Текст] / Inobat Bahodirovna Madrakhimova // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). — 2024. — № Volume. 7, Issue 07. — С. 186-191.
8. Madrakhimova Inobat Bahodirovna OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES ITS SIGNIFICANCE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM, DISADVANTAGES AND ADVANTAGES [Текст] / Madrakhimova Inobat Bahodirovna // INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT. — 2024. — № Vol.3 No.12. — С. 410-413.
9. Inobat Madraximova Xosiyat Rustamova she'rlarida kuz modusi [Текст] / Inobat Madraximova // Til va adabiyot.uz. — 2024-yil. — № 2-son. — С. 160-161.
10. Ўзбек тили грамматикаси, I том, Морфология. — Тошкент: Фан, 1975. — 608 б.
11. Ўзбек тили стилистикаси. — Ташкент, 1983. — 146 б.



12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. 1-жилд. – 679 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. 2-жилд. – 671
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. 3-жилд. – 687 б.